

## Deviant Xulq-Atvorli Bolalarni Ijtimoiy Moslashuv Jarayonida Psixologik Yondashuvlar

Tojiboyeva Nodiraxon Tursunalivevna<sup>1</sup>

**Annotatsiya:** deviant xulq-atvorli bolalarning ijtimoiy moslashuv jarayonida qo'llaniladigan psixologik yondashuvlar tahlil qilinadi. Deviant xulq-atvorning kelib chiqish sabablari, ularni aniqlash va bartaraf etish usullari, shuningdek, bolalar bilan individual, guruhiy va innovatsion texnologiyalar asosida ishslash metodlari yoritilgan. Oilaviy va ijtimoiy muhitning bola xulq-atvoriga ta'siri hamda psixologik qo'llab-quvvatlashning ahamiyati chuqur tahlil qilinadi. Maktab va jamoa dasturlarining ijtimoiy moslashuvga ta'siri va zamonaviy psixologik terapiya usullarining samaradorligi ilmiy asoslar bilan keltirilgan. Maqola deviant xulq-atvorli bolalarni ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli integratsiya qilish bo'yicha tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

**Kalit so'zlar:** *deviant xulq-atvor, ijtimoiy moslashuv, psixologik yondashuv, individual terapiya, oilaviy qo'llab-quvvatlash, maktab dasturlari, innovatsion texnologiyalar, guruhiy treninglar, psixologik terapiya.*

**Kirish.** Bugungi kunda jamiyat ijtimoiy-psixologik murakkabliklarga to'la bir davrni boshdan kechirmoqda. Bunday sharoitda deviant xulq-atvorga ega bo'lган bolalar bilan ishslash, ularni ijtimoiy moslashuv jarayoniga samarali jalb qilish muhim dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Deviant xulq-atvorni sodda tushunchada ko'rib chiqish qiyin, chunki bu muammo nafaqat bolaning ichki ruhiy olami va hissiy holati bilan, balki ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit, ta'lim tizimi va kengroq ijtimoiy munosabatlar bilan chambarchas bog'liqidir. Ushbu masala jamiyatning barqaror rivojlanishiga to'siq bo'lishi mumkin bo'lган ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun chuqur tahlil va ilmiy asoslangan yondashuvlarni talab etadi. Ushbu maqola doirasida deviant xulq-atvorli bolalarning ijtimoiy moslashuv jarayonida samarali psixologik yondashuvlarni belgilash, ularning xulq-atvoridagi muammolarni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish masalasi tahlil qilinadi. Mazkur mavzu bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, bolaning shaxsiy va ijtimoiy muvaffaqiyatini ta'minlash uchun, birinchi navbatda, ularning psixologik farovonligi va ijtimoiy moslashuviga e'tibor qaratilishi lozim. Shu bilan birga, deviant xulq-atvorga ega bo'lган bolalarning ijtimoiy moslashuvini qo'llab-quvvatlashda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish ham alohida ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlash zarurdir.

### Metodologiya

Jamiyatimizda deviant xulq-atvorli bolalarning ijtimoiy moslashuv jarayoni murakkab jarayon bo'lib, bu nafaqat ularga moslashish uchun zarur bo'lган ijtimoiy qoidalar va ko'nikmalarni o'rgatishdan iboratdir. Bu jarayon bolaning ichki shaxsiyatini o'zgartirish, ularning hissiy va psixologik holatiga mos keladigan sharoitlarni yaratish hamda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini shakllantirishni o'z ichiga oladi. Hozirgi zamon psixologiyasi va pedagogikasida bolalar bilan ishslashning yangi usullari va metodlari ishlab chiqilgan bo'lsa-da, deviant xulq-atvorli bolalarga nisbatan samarali yondashuvlar ko'p hollarda aniq ijtimoiy sharoitlar va ehtiyojlarga bog'liqidir.

Shuni ta'kidlash joizki, bolalarning deviant xulq-atvori ko'pincha ularning atrofidagi muhitning salbiy ta'siridan kelib chiqadi. Oiladagi nizolar, ota-onalarning e'tiborsizligi, maktabdagi qabul qilinmaganlik hissi yoki jamiyatdagi beqarorlik kabi omillar deviant xulq-atvorga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun ularning ijtimoiy moslashuviga erishish uchun individual yondashuv, empatiya va ijtimoiy

<sup>1</sup> Andijon davlat pedagogika instituti Pedagogika va psixologiya kafedrasи o'qituvchisi



qo'llab-quvvatlashning o'zaro uyg'unligi zarur. Bu jarayonda, ayniqsa, psixologlar va pedagoglarning roli beqiyosdir, chunki ular bolalarning ichki salohiyatini aniqlash, ularni rivojlantirish hamda ularning ijtimoiy qabul qilingan xatti-harakatlarni o'zlashtirishlariga yordam beradigan maxsus usullarni qo'llaydi.

Deviant xulq-atvorli bolalarning xatti-harakatlari va shaxsiy xususiyatlarini o'rganish bugungi kunda ijtimoiy va psixologik muammolarni hal qilishning muhim yo'nalişlaridan biri hisoblanadi. Ushbu bolalar odatda o'zlarining ijtimoiy rollarini anglash, boshqalarga nisbatan munosabatni shakllantirish va jamiyatning umumiyoq qoidalariga moslashish jarayonida qiyinchiliklarga duch kelishadi. Bunday holatlar ko'pincha ularning ichki ruhiy holatlari, hissiy tajribasi va atrof-muhit bilan munosabatlaridagi nomutanosiblik bilan bog'liq bo'lib, bu bolalarning to'laqonli ijtimoiy hayotda ishtirok etishini cheklaydi.

Deviant xulq-atvorli bolalarning ijtimoiy moslashuvi bolalarning jamiyatdagi roli va o'rnini anglash, atrof-muhit talablariga moslashish hamda ijtimoiy qoidalarni qabul qilish jarayoni sifatida talqin qilinadi. Bolaning ijtimoiy moslashuvi uning ichki mojarolari va tashqi muhit talablarini muvofiqlashtirish orqali shakllanadi[1]. Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasi shuni ko'rsatadi, deviant xulq-atvorli bolalarda ijtimoiy moslashuv ichki hissiy muammolar va jamiyat talablarining o'zaro ta'siri natijasida murakkablashadi. Bu fikrni sharhlashda, deviant bolalarning ichki hissiy holatini tahlil qilish va ularning ijtimoiy muhitga moslashuvini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus terapiya usullarini qo'llash muhimligi ta'kidlanadi. Bu jarayon murakkab bo'lib, bolaning individual va guruhiy xulq-atvori, hissiy tajribasi va ijtimoiy muhit bilan munosabatlarini qamrab oladi. Psixologiyada ijtimoiy moslashuvning mohiyati bolalarning shaxsiy ehtiyojlari, ijtimoiy ko'nikmalari va guruhda o'zini tutish qobiliyatları orqali tahlil qilinadi. Deviant xulq-atvorga ega bolalarda esa ushbu jarayon qiyin kechadi, chunki ular jamiyatdagi normalarni qabul qilish va ularga moslashishda juda ko'p qiyinchiliklarga duch keladi.

## Natija va Muhokama

Deviant bolalar ko'pincha o'z xatti-harakatlari orqali jamiyat talablariga qarshi chiqishadi, bu esa ularning ijtimoiy moslashuvini yanada murakkablashtiradi. Banduruning ijtimoiy ta'lif nazariyasiga ko'ra, bolalar o'z xatti-harakatlarini kuzatish va jamiyatdagi ijtimoiy modellarni o'zlashtirish orqali o'rganadilar[2]. Deviant xulq-atvorli bolalarda ko'pincha salbiy modellar kuzatiladi. Shunday ekan ularga ijobjiy modellar taqdim etish va o'sha modellarni kuzatish orqali to'g'ri xulq-atvorni shakllantirish zarurligini aytish mumkin. Bu orqali bolaning jamiyatdagi o'rnini tushunish osonlashadi. Bunday bolalar bilan ishslashda ularning xatti-harakatlaridagi muammoli jihatlarni bartaraf etish emas, balki ularni jamiyatga to'laqonli a'zo sifatida integratsiya qilish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda, psixologik yondashuvlarning qo'llanilishi ularning hissiy holatini barqarorlashtirish, atrof-muhitga nisbatan ishonch hosil qilish va ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish uchun zarur sharoit yaratadi.

Deviant xulq-atvor odatda bolalarning psixologik travmalari, oilaviy mojarolar, e'tiborsizlik, yoki jamiyatdagi ijtimoiy tengsizliklardan kelib chiqadi. Masalan, oiladagi zo'ravonlik yoki ota-onalarning bolaning ehtiyojlariga yetarli darajada e'tibor bermasligi, maktabdagi noqulay muhit yoki tengdoshlari orasida qabul qilinmaslik hissi bolalarda muammoli xulq-atvorni shakllantiruvchi asosiy omillar sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, bunday bolalarning o'zini o'zi anglash jarayoni zaiflashadi, natijada ular o'z xatti-harakatlarini boshqarish va jamiyat qoidalarini qabul qilishda qiyinchiliklarga duch keladi.

Deviant xulq-atvorga ega bolalar bilan ishslash jarayonida, ularning shaxsiy va ijtimoiy o'ziga xosliklarini tahlil qilish orqali muammoli xulq-atvorga olib keluvchi sabablarni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Bola hayotidagi birlamchi bog'lanishlar uning ijtimoiy rivojlanishi va hissiy barqarorligida hal qiluvchi ahamiyatga ega[3]. Psixologik yondashuvlar bunday tahlilning ajralmas qismi hisoblanadi. Masalan, individual yondashuv orqali bolaning ichki hissiy holati, o'zini tutishiga ta'sir qiluvchi omillar va ularning ijtimoiy muhitga moslashish jarayoni o'rganiladi. Shu bilan birga, bolaning psixologik travmalari bilan ishslash uchun hissiy terapiya va kognitiv yondashuvlar



qo'llaniladi. Bu esa bolaning ichki dunyosidagi nizolarni bartaraf etishga va uning atrof-muhitga bo'lgan munosabatini sog'lom yo'naliishga o'zgartirishga yordam beradi. Bunday bolalar ko'pincha o'z his-tuyg'ularini ifoda etishda va boshqalarning his-tuyg'ularini tushunishda qiyinchiliklarga duch keladi. Shu sababli, empatiya va o'zaro munosabatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan guruhiy mashg'ulotlar deviant bolalarni jamiyatga integratsiya qilishda muhim ahamiyatga ega. Guruhiy faoliyatlar ularga o'z-o'zini anglash, o'zini boshqarish va boshqa odamlar bilan ijobiy munosabatlar o'rnatish uchun imkoniyat yaratadi.

Deviant xulq-atvorga ega bolalar ko'pincha jamiyat tomonidan salbiy baholanadi, bu esa ularning o'ziga bo'lgan ishonchini yanada pasaytiradi. Shu sababli, ularga ijobiy yondashuvni ta'minlash va ularni jamiyatdagi faol ishtirokchi sifatida ko'rsatish uchun ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini shakllantirish zarur. Bu tizim mifik, oila va kengroq jamiyatdagi hamkorlikni o'z ichiga oladi. Bolaning har bir harakati tahlil qilinib, uning individual ehtiyojlari va qobiliyatlariga mos holda psixologik yordam ko'rsatilishi muhimdir[4]. Natijada, deviant xulq-atvorli bolalar bilan ishslash faqatgina ularning muammoli xatti-harakatlarini bartaraf etishga qaratilgan yondashuv bo'lmay, balki ularni to'laqonli shaxs sifatida shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish orqali biz nafaqat bolalarning shaxsiy hayotini yaxshilashga, balki jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikka ham o'z hissamizni qo'sha olamiz.

Bundan tashqari, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimlari ham deviant bolalarning ijtimoiy moslashuv jarayonida hal qiluvchi ahamiyatga ega[5]. Mifik, oila va jamiyatning o'zaro hamkorligi, bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish uchun qulay muhit yaratishga yordam beradi. Guruhiy mashg'ulotlar va jamoaviy faoliyatlar bolalarning birgalikda ishslash, o'zaro yordam va muloqot qobiliyatlarini shakllantiradi[6]. Norqulovaning fikri guruhiy faoliyat va o'yin terapiyalarining deviant bolalarning ijtimoiy moslashuvini kuchaytirishdagi rolini ko'rsatadi. Bunday faoliyatlar bolalarning ijtimoiy muloqotga bo'lgan qiziqishini oshirishi va ularga jamiyat qoidalarni o'zlashtirishga yordam berishini aytish mumShu bilan birga, bunday faoliyatlar orqali ular ijtimoiy qoidalarni amaliy tajriba sifatida o'zlashtiradi va o'zlarini jamiyatning muhim a'zosi sifatida his qilishadi.

Psixologiyada kognitiv-hissiy terapiya, davranish terapiyasi va o'yin terapiyasi kabi zamonaviy usullar ijtimoiy moslashuv jarayonini qo'llab-quvvatlashda muvaffaqiyatli qo'llaniladi. Ushbu usullar orqali bolalarning hissiy barqarorligi tiklanadi, ularning xulq-atvoridagi muammoli jihatlar to'g'rlanadi va yangi ijtimoiy ko'nikmalar shakllantiriladi. Masalan, bolaning o'zini boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirish, o'zaro hurmat va ijobiy muloqotni shakllantirish orqali ijtimoiy moslashuv jarayonida sezilarli o'zgarishlar kuzatiladi. Natijada, ijtimoiy moslashuv jarayonining psixologik asoslari, avvalo, bolalarning shaxsiy ehtiyojlarini qondirish, ularga mos sharoit yaratish va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi zarur. Ushbu jarayon faqat ijtimoiy qoidalarni o'zlashtirish bilan cheklanmasdan, bolaning jamiyatda o'zini to'laqonli his qilishiga imkon yaratadi. Bu esa nafaqat bolalarning o'z hayotini yaxshilaydi, balki jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Davranish terapiyasi deviant bolalarning noto'g'ri xatti-harakatlarini to'g'irlash va ularga ijobiy xulqni shakllantirishga qaratilgan samarali yondashuv hisoblanadi. Ushbu usul orqali bolalarning xatti-harakatlari kuzatiladi, salbiy xatti-harakatlarni rag'batlantiruvchi omillar aniqlanadi va ularga ijobiy muqobil variantlar taqdim etildi. Masalan, bolalar mifikda yoki oilada ko'pincha jazolanishi mumkin bo'lgan salbiy xatti-harakatlarni ko'rsatishadi. Davranish terapiyasi ularning ijobiy harakatlariga rag'bat berish orqali salbiy harakatlarni kamaytirishga yordam beradi.

Guruhiy mashg'ulotlar deviant xulq-atvorli bolalarni jamiyatga integratsiya qilishning samarali usullaridan biridir. Jamoa bilan ishslash orqali bolalar ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Guruhiy faoliyatlar bolalarga o'zaro yordam, jamoaviy mas'uliyat va boshqalarga nisbatan hurmat hissini shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, ular o'zlarini boshqa odamlar orasida qabul qilinadigan shaxs sifatida his qilishadi, bu esa ijtimoiy moslashuvga katta hissa qo'shadi. Guruhiy treninglar va rolli o'yinlar orqali bolalar ijtimoiy vaziyatlarda o'zini qanday tutishni o'rganadilar va bu orqali real hayotda uchraydigan qiyinchiliklarga tayyorlanadilar.



Bolalar oilada o‘zlarini qabul qilingan va himoyalangan deb his qilishmasa, ular jamiyatda ham o‘zini noqulay his qilishi mumkin. Masalan, ota-onalar orasidagi doimiy nizolar yoki ulardan birining psixologik bosimi bolalarning ruhiy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, bu esa ularning noto‘g‘ri xatti-harakatlarini keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, haddan tashqari qattiqqo‘llik yoki jazolash usullari bolaning o‘ziga nisbatan ishonchini pasaytiradi va unda salbiy xulq-atvor shakllanishiga sabab bo‘ladi. Shu sababli, ota-onalar bilan ishslash va ularga psixologik maslahatlar berish deviant xulq-atvorli bolalarning ijtimoiy moslashuvini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Psixologik maslahatlar orqali ota-onalarga bolalarning ehtiyojlarini tushunish, ularga nisbatan to‘g‘ri yondashuvni shakllantirish va ularning hissiy qo‘llab-quvvatlanishini ta’minlash bo‘yicha ko‘nikmalar beriladi.

Xatti-harakatlarni o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatiga shaxsiy ishonch ta’sir ko‘rsatadi. O‘z harakatlarini boshqarish va nazorat qilishga qodir ekanligiga ishonadigan odamlar deviant xulq-atvorga kamroq moyil bo‘lishadi[7]. Bu fikr shaxsiy ishonch va o‘z-o‘zini boshqarishning ahamiyatini ta’kidlaydi. Banduraga ko‘ra, o‘ziga ishonch past bo‘lgan yoki o‘z harakatlarini nazorat qilishda qiyinchilikka duch keladigan odamlar deviant xulq-atvorga ko‘proq moyil bo‘ladi. Masalan, bolalar va o‘smirlar o‘z kuchlariga ishonishganida, ular noto‘g‘ri xatti-harakatlardan tiyilish ehtimoli yuqori. Bu xatti-harakatlarni boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish va ijobjiy o‘ziga ishonchni shakllantirish deviant xulq-atvorni oldini olishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, o‘yin terapiyalari innovatsion texnologiyalar doirasida deviant bolalar bilan ishslashning samarali vositasi sifatida tan olingan. Maxsus ishlab chiqilgan o‘yinlar orqali bolalar o‘z hissiy holatini boshqarish, o‘zaro hamkorlik qilish va ijtimoiy qoidalarni qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Masalan, o‘yin orqali stressli vaziyatlarni boshdan kechirib, ularga qanday munosabat bildirish kerakligini o‘rganishlari mumkin. Bunday terapiyalar bolalarning o‘zlarini yaxshi anglash, o‘z kuchlariga ishonch hosil qilish va qiyin vaziyatlarda o‘zlarini boshqarishga o‘rgatadi.

**Xulosa.** Deviant xulq-atvorli bolalarning ijtimoiy moslashuvini ta’minlash, ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashda turli psixologik yondashuvlar va usullarni qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarda deviant xulq-atvorning erta aniqlanishi, bu muammoni bartaraf etish jarayonini yanada samarali va o‘z vaqtida olib borishga imkon beradi. Shu sababli, diagnostika va psixologik testlarning qo‘llanilishi bolalar xulq-atvorini tahlil qilish va muammo kelib chiqishining chuqur sabablarini aniqlash uchun zarurdir. Bu esa nafaqat muammoni hal qilishni osonlashtiradi, balki ularning kelgusidagi rivojlanishi uchun qulay shart-sharoit yaratadi.

Bolalar bilan ishslashda individual yondashuvni zamonaviy psixologik metodlar bilan birlashtirish eng samarali usullardan biridir. Har bir bola o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lganligi sababli, ularga mos yondashuv tanlash muhimdir. Kognitiv-hissiy terapiya, davranish terapiyasi yoki guruhiy treninglar kabi metodlarni birlashtirish orqali bolaning xatti-harakatlarini shakllantirish, stressga bardoshliligini oshirish va ijtimoiy moslashuvini kuchaytirish mumkin. Bunday yondashuvlar bolalarning o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatini oshiradi va ularni jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiya qilishga yordam beradi.

Maktab muhitida ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash dasturlarini joriy qilish orqali deviant xulq-atvorli bolalarning tengdoshlari orasida qabul qilinishini oshirish, ular uchun qulay va xavfsiz muhit yaratish mumkin. O‘qituvchilar va maktab jamoasining bolalarga nisbatan ijobjiy munosabati, ularning ijtimoiy moslashuviga xizmat qiladigan muhim vosita hisoblanadi. Jamoaviy faoliyatlar, sport musobaqlari va boshqa ijtimoiy tadbirlar orqali bolalar o‘zlarini jamiyatning ajralmas bir qismi sifatida his qilishadi va ijtimoiy qoidalarni o‘rganadilar.

## Xulosa

Innovatsion texnologiyalarni qo‘llash bugungi kunda deviant xulq-atvorli bolalar bilan ishslashda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Virtual treninglar, psixologik o‘yinlar va masofaviy maslahatlar orqali bolalarning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlanishiga bo‘lgan ishonchini oshirish va muammoli xulq-atvorlarini bartaraf etish mumkin. Bu texnologiyalar bolalar bilan individual ishslashni osonlashtiradi va natijalarni tezroq ko‘rishga yordam beradi. Deviant xulq-atvorli bolalarning ijtimoiy moslashuvini ta’minlash uchun kompleks yondashuv talab etiladi. Diagnostika, oilaviy qo‘llab-



quvvatlash, individual va zamonaviy psixologik metodlarning uyg'unligi, maktabdagı ijtimoiy dasturlar va innovatsion texnologiyalar orqali bolalarning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash mumkin. Ushbu yondashuvlar natijasida bolalar jamiyatda o'z o'mini topish, ijobiy xulq-atvorni shakllantirish va to'laqonli shaxs sifatida rivojlanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa nafaqat bolalarning, balki jamiyatning umumiy farovonligiga xizmat qiladi.

### Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Erikson, E. (1950). *Childhood and Society*. New York: W. W. Norton & Company.
2. Bandura, A. (1977). *Social Learning Theory*. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall.
3. Bowlby, J. (1969). *Attachment and Loss: Vol. 1. Attachment*. New York: Basic Books.
4. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
5. Skinner, B. F. (1953). *Science and Human Behavior*. New York: Macmillan.
6. Olimov, L. Ya. (2017). *Deviant xulq-atvor psixologiyasi*. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
7. Albert Bandura, Social Learning Theory, (1977)
8. Karimov, I. A. (2014). *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch*. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti.
9. Amonov, B. (2020). *Ijtimoiy moslashuv: Bolalar psixologiyasidagi yangi yondashuvlar*. Toshkent: O'zbekiston pedagogika ilmiy markazi.
10. Norqulova, G. (2021). *Guruhiy mashg'ulotlar orqali ijtimoiy moslashuv*. Toshkent: O'zbekiston psixologiya markazi.
11. A'zamova, M. (2019). *Oilaviy muhit va bolalar xulq-atvori: Tahlil va tavsiyalar*. Toshkent: Ta'lim nashriyoti.
12. Nortoyeva, S. Q., & Yangiboyeva, D. U. (2020). "Oilaviy muhitning bolalar xulq-atvoriga ta'siri." *Psixologiya va pedagogika ilmiy jurnali*, 4(2), 25–32.
13. Norqulova, G. (2021). "O'yin terapiyalari yordamida deviant xulq-atvorni bartaraf etish." *Tarbiyaviy pedagogika ilmiy jurnali*, 3(1), 18–24.
14. Sharipov, H. (2020). "Deviant xulq-atvorning ijtimoiy-psixologik omillari." *Ijtimoiy fanlar va ta'lim*, 5(3), 42–50.

